VIII. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning turliligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar–mart holatiga)

	mlrd. so‘m	**O‘sish surati, %**	**Jamiga nisbatan, %**
Xizmatlar-jami	**5 735,4**	**102,7**	**100,0**
shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	323,9	125,4	5,6
moliyaviy xizmatlar	1 298,0	95,7	22,6
transport xizmatlari	1 013,7	102,8	17,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	940,6	100,7	16,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	158,4	102,7	2,8
savdo xizmatlari	1 702,8	102,5	29,7
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	138,4	105,3	2,4
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	240,7	113,1	4,2
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	116,8	103,8	2,0
ijara xizmatlari	109,8	100,8	1,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	153,7	102,5	2,7
shaxsiy xizmatlar	290,0	103,6	5,1
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	50,7	102,1	0,9
boshqa xizmatlar	138,4	106,4	2,4

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (29,7 %), moliyaviy xizmatlar (22,6 %), transport xizmatlari (17,7 %) tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,9 %), ijara xizmatlari xizmatlari (1,9 %), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2,0 %) tashkil etgan.

2023- yilning yanvar-mart holatiga xizmatlar tarkibi

(jamiga nisbatan %da, katta ulushga ega bo‘lganlar)



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo xizmatlari (jami xizmatlarning 29,7 %i), moliyaviy xizmatlar (22,6 %i), transport xizmatlari (17,7 %i), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,6 %i) hissasiga to‘g‘ri keldi.

2023- yil yanvar-mart oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so‘m



Joriy yilning yanvar - mart oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlari 1 702,8 mlrd. so‘m, moliyaviy xizmatlar 1 298,0 mlrd.so‘m, transport xizmatlari 1 013,7 mlrd.so‘m, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 323,9 mlrd. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

2023- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, %



2023-yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi Farg‘ona viloyatida 565,5 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo‘yicha xizmatlar 63,7 mlrd.so‘m, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar 501,8 mlrd.so‘mni tashkil etgan.

2023- yil yanvar-mart oylarida transport bo‘yicha xizmatlar tarkibi, % da



2023-yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi Farg‘ona viloyatida 1 013,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 940,6 mlrd.so‘mni, jami transport xizmatlarining 92,8 %ini tashkil etadi.

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish

(2023- yilning yanvar-mart oylarida)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd.so‘m	2022- yil yanvar-mart holatiga nisbatan %da	jami xizmatlar hajmiga nisbatan %da	ming so‘m	2022-yil yanvar-mart holatiga nisbatan %da
Farg‘ona viloyati	**5 735,4**	**102,7**	**100,0**	**1 439,1**	**100,6**
shaharlar:					
Farg‘ona	1 861,5	102,4	32,6	5 900,2	97,4
Qo‘qon	3 085,6	103,0	18,9	3 562,8	112,9
Quvasoy	109,1	103,0	1,9	1 101,1	100,9
Marg‘ilon	503,5	102,8	8,8	2 037,0	101,1
tumanlar:					
Oltiariq	219,5	103,0	3,8	978,5	100,8
Qo‘shtepa	120,9	102,9	2,1	592,5	100,3
Bag‘dod	123,7	103,0	2,2	541,3	100,9
Buvayda	196,9	102,8	3,4	813,2	100,5
Beshariq	147,4	102,8	2,6	617,3	101,2
Quva	161,6	102,8	2,8	595,7	101,0
Uchko‘prik	181,8	102,7	3,2	768,2	103,3
Rishton	155,0	102,7	2,7	729,0	100,8
So‘x	63,8	102,4	1,1	775,7	100,5
Toshloq	162,4	102,8	2,8	755,9	100,6
O‘zbekiston	121,8	102,8	2,1	527,1	109,8
Farg‘ona	184,4	102,9	3,2	847,9	104,8
Dang‘ara	116,0	102,9	2,0	669,7	107,7
Furqat	87,6	102,9	1,5	702,8	100,8
Yozyovon	134,3	102,3	2,3	1 142,6	100,2

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’ati Quvasoy shahriga (103,0%) va Oltiariq tumaniga (103,0 %) to‘g‘ri keldi. Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning yuqori ulushlari Farg‘ona shahri (32,6 %), Qo‘qon shahri (18,9 %), Marg‘ilon shahri (8,8 %), Oltiariq (3,8 %) va Buvayda (3,4 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ulushlari So‘x (1,1 %), Furqat (1,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2023- yilning yanvar-mart holatiga xizmatlar sohasida ulushi katta bo‘lgan hududlar

(jamiga nisbatan %da)



2023-yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 1 439,1 ming so‘mga teng bo‘ldi. Uning o‘sish sur’ati esa o‘tgan yilga nisbatan 100,6 %ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatkichlar



Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Farg‘ona (5 900,2 ming so‘m), Qo‘qon (3 562,8 ming so‘m) va Marg‘ilon (1 101,1 ming so‘m) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Quvasoy shahri (2 037,0 ming so‘m), Oltiariq (978,5 ming so‘m) va Furqat (702,8 ming so‘m) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo‘ldi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng past ko‘rsatkichi O‘zbekiston tumanida (527,1 ming. so‘m) kuzatildi, o‘sish sur’ati 109,8 % ni tashkil etdi.